

Vatanimiz yoshlari

Mamlakatimiz mustaqilligi yillarida ruy bergan muhim o'zgarishlardan biri ma'naviy yangilanish, kishilarning ongi, tafakkuri va dunyoqarashining boyib, kengayib borayotganligi hamda erkinlik kasb etayotganligidir. Xususan, yoshlarimizning elu-yurt, xalq, millat va Vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuxratini yanada oshirish, ilmu-fanni va madaniyatni hamda san'atni gullab yashnatish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, o'tmishini, ajdodlari boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini o'rganish, munosib baholash borasidagi faoliyatlari ayniqsa kishini quvontiradi. Prezident doim biz yoshlarga qaratishunday so'zlarni takidlaydigan.

"Hozirgi kundagi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz - jamiyatimiz a'zolarini, avvalam bor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr - sadoqat tuyg'ularini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruxida tarbiyalashdan iboratdir."

Bundan tashqari mamlakatimiz rahbari Islom Abdug'anievich Karimov yoshlarga yanada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2008 yilni "Yoshlar yili" uning uzviy davomi sifatida esa 2009 yilni "Barkamol avlod yili" deb elon qildilar. Bu O'zbekiston yoshlariga katta ma'suliyatni yuklaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'ylaymizki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topayotgan yurtimiz yoshlari bu yuksak ishonchni oqlash yo'lida bor bilimi va kuch g'ayratini, albatta safarbar etadilar.

Mamlakatimiz mustaqilligi yillarida ruy bergan muhim o'zgarishlardan biri ma'naviy yangilanish, kishilarning ongi, tafakkuri va dunyoqarashining boyib, kengayib borayotganligi hamda erkinlik kasb etayotganligidadir. Xususan, yoshlarimizning elu-yurt, xalq, millat va Vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuxratini yanada oshirish,

ilmu-fanni va madaniyatni hamda san'atni gullab yashnatishini, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, o'tmishini, ajdodlari boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini o'rganishni, munosib baholash borasidagi faoliyatlari ayniqsa kishini quvontiradi.

Ma'naviy yetuklik insonning ehtiyojiga aylanib qolishi zarur. Odob qoidalari hamma uchun xayotiy talabdir. Ahloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomila munosabati tarzida namoyon bo'ladi. Jamiyatimizning buguni, ertasi va kelajagi ko'p jixatdan yoshlarimiz tarbiyasiga bog'liq. Shunday ekan bizning maqsadimiz milliy, ma'naviy va moddiy qadriyatlarimizni, odob-ahloqni yoshlarimiz ongiga chuqurroq singdirishdan iboratdir.

Biz yoshlar ham o'z oldimizga vatanimiz rivoji uchun aniq bir maqsad qo'yib unga erishishga va yurtimiz ravnaqini yanada yuksaltirish yo'lida qo'limizdan kelgancha kuch va g'ayratimizni ayamashimiz kerak.

Yoshlarimiz ahloqiy tarbiya jarayonida, ya'ni o'qish, jamoat ishlarida tirishqoq, do'stlarga sofdil munosabatda bo'lish, o'z burch va vazifalariga vijdonan yondashish, xalol mehnat qilish kerakligini, ba'zi tengdoshlarining ayrim salbiy odatlariga befarq bo'lmaslikni tushunib anglab boradilar. Shuningdek ular o'z manfaatlari uchungina emas, balki oilasi, sinf va maktab jamoasi sha'niga dog' tushirmaslikka o'rganadilar. Insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma'naviy-ahloqiy barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya tushunchasi keng qamrovlidir. Ma'naviy-ahloqiy barkamol inson otasi, farzandlari, qarindoshlari xullas butun oila a'zolari, qo'ni qo'shnilari, mahalla-kuyi va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'uradi; tevarak- atrofni o'rab olgan insonlar unga kerak bo'lgani singari, o'zi ham ularga kerakli kishi bo'lishga intiladi; Odob-ahloq, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblaydi; ota-bobolaridan yodgor bo'lib qolgan madaniy me'rosni qadrlaydi; Milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi; o'zaro muomila-munosabatda

o`rnak bo`lishga moil bo`ladi; birovning og`irini yengil qilishni odat qiladi; umumxalq ma'qullagan va xurmat qilgan Konstitutsiyani hurmat qiladi va unga sadoqat namunalarini amalda ko`rsatadi; Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, xarbiy vatanparvarlik tuyg`ulari bilan yashaydi; diyonat va adolat, mehr-shavqat va ezgulikni himoya qiladi, va'daga vafoli bo`lishni o`ziga kasb qilib oladi.

Biz yoshlar bizga yaratoilib kelinayotgan keng va yangidan – yangi imkoniyatlardan samarali foydalanib yurtimizga foydasi tegadigan insonlar bo`lishimiz kerak. Shundagina ota-onamiz va vatanimiz oldidagi burch, vazifalarimizni ado etgan bo`lardek.

MOHICHEHRA JO`RAEVA

403-guruh talabasi